

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI VA MAKTAB O'RTASIDAGI  
ISHLARINI TASHKIL ETISH

**Egamova Dilso'z Sadriddinovna**

*Yangiyer pedagogika kolleji Maxsus fanlar kafedrası katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktab o'rtasidagi ishlarini tashkil etish haqida so'z boradi.*

**Annotation:** *This article talks about the organization of work between preschool educational organizations and schools.*

**Аннотация:** *В данной статье рассказывается об организации работы между дошкольными образовательными организациями и школами.*

**Kalit so'zlar:** *Fazoviy tasavvur, ilk yosh, o'yin, mashg'ulot,*

Respublikamizda maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim va tarbiya ishining keng dasturini amalga oshiradi va bolalarni maktab ta'limiga tayyorlab boradi. Hozirgi vaqtda yuz berayotgan ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar xalq ta'limi butun bir tizimini yoshalar va bolalarni tarbiyalash, ularga ta'lim berish ishini takomillashtirishni nazarda tutadi.

Bu vazifa xalq ta'limining boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bevosita taaluqli hisoblanadi. Ular hamisha maktab bilan uzviy bog'langan holda ishlab kelganlar. Maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan maktab o'rtasida o'rnatilgan izchil aloqaning har tomonlamaligi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash vazifasini muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy sharti bo'lib hizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan maktab o'rtasidagi uzviy bog'liqlik katta maktabgacha yoshidagi bolalar va maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim – tarbiya berish sharoitini yaqinlashtirishga yordam berib hizmat qilib kelmoqda. Shunday ish tutilganda bolalarning maktab sharoitiga moslashishi ancha yengillik bilan ko'chishini ham ko'zda tutib kelinmoqda. Bolalar maktab sharoitiga tabiiy moslashib ketadilar, bu esa o'z navbatida maktabda o'qishning birinchi kunidan boshlab ta'lim-tarbiya ishining samarasini oshirib borishga hizmat qiladi.

Zero, maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari birinchi sinfda bolalar oldiga qo'yiladigan talablarni yaxshi bilishlari, maktabga tayyorlov

guruhidagi bolalarni shunga muvofiq ravishda ta'lim olishga tayyorlashlari kerak.

Maktab bilan maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi uzviy aloqa murakkab va ko'p tomonlama tuzilishga ega. Unda ta'lim-tarbiyaviy ishlarning mazmuni, metod va usullari, tashkiliy shakllari, shuningdek bolalarni tarbiyalash shart-sharoitlari va pedagogik talab kabi yetakchi tomonlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Bunda quyidagilarga alohida e'tibor berish kerak:

1. Maktab talabi nuqtai nazaridan bolalar bilimlarini chuqurroq egallab olishlari lozim.

2. Bog'cha nuqtai nazaridan bolalarni maktab talabi darajasidagi bilim, malaka, ko'nikmalar bilan qurollantirish zarur.

3. Bolalarning maktabga ruhiy tayyorligi. Bu yerda vazifa bolalar mehnatining har qanday turiga tayyor turishlari, ularda aqliy mehnat - bilishga qiziqishni o'stirish, ularning kelajakdagi mustaqil faoliyatiga tayyorlashdan iborat.

4. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan maktab o'rtasida izchil aloqa o'rnatish.

O'zviylik Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktabda shaxsni har tomonlama shakllantirish bo'yicha olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishini izchillik bilan amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda boshlang'ich sinf ta'limi maqsad va vazifalariga mos keladigan sifat jihatdan yangi xususiyatlarni shakllantiradi.

Maktabdagi dars, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi mashg'ulot birmuncha o'ziga xos xususiyatlarga ega, shu bilan birga ta'limning tashkiliy asosda olib borilishida esa umumiylik sezilib turadi. Mashg'ulot va darslarning mazmuni aniq belgilangan vaqt ajratilishi, pedagogning rahbarlik roli, ta'limning ilmiy asoslangan metod va usullaridan foydalanish, ta'lim berish jarayonida bolalarda o'quv faoliyati elementlari, o'z xulqini ixtiyoriy boshqarish qobiliyati, ma'lum maqsadga qaratilgan aqliy ish bilan shug'ullanish qobiliyati, ma'lum maqsadga qaratilgan aqliy ish bilan shug'ullanish qobiliyati tarbiyalab boriladi. Bular xammasi bolani maktab ta'limiga faol kirishib ketishiga tayyorlaydi.

Bolalarda o'ziga ishonch hissi, o'z kuchiga ishonish yoki ishonmaslik kabi sifatning shakllanishi maktab ta'limining muvaffaqiyatiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Go'daklik yoshida maktab ta'limining muvaffaqiyatini belgilovchi bir qator zarur sifatlar rivojlanadi:

Bular quyidagilar:

- o'ziga ishonch va himoyalanganlik hissini, atrofdagilarga muhabbatni his qilish;

- maktab ta'limi uchun juda zarur bo'lgan mustaqil faollik va maqsadga yo'naltirilgan faoliyat kurtagini namayon bo'lishi;

- muloqat mexanizmnining, ayniqsa emosional va nutqli muloqatni shakllanishi: bu bolaga yangi vaziyat maktab jamoasiga kirishib ketish imkonini beradi;

- amaliy rivojlanishni boshlanishi.

Shunday qilib, bolalar bog'chasi bilan maktab o'rtasida ta'lim-tarbiya ishidagi izchillik bola shaxsini aniq maqsad bilan har tomonlama rivojlantirib borish imkonini yaratadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.P.Yusupova „Maktabgacha tarbiya pedagogikasi“

Toshkent - "O'qituvchi"-- 1993-yil.

2. S.A.Oxunjonova psixologiya fanlari nomzodi, K.Z.Ismoilova.

"Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash haqida" Metodik qo'llanma.

Toshkent- 1999-yil.